INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

Til o‘rganishda affikslarni bilishning ahamiyati

Muxlisa Normurodova
Denov tadbirkorlik va pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs magistri
mnormurodova206@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada til o‘rganish jarayonida affikslarni bilishning ahamiyati yoritilgan. Unda affikslarning turlari, ularning so‘z yasalishidagi o‘rni va ahamiyati hamda lug‘at boyligini oshirishdagi roli haqida so‘z boradi. Shuningdek, qo‘shimchalarni o‘rganish orqali o‘quvchilarning grammatika, yozish, o‘qish va so‘z ma’nosini anglash ko‘nikmalari rivojlanishi tahlil qilingan. Mazkur maqolada ingliz tilidan misollar keltirilib, affikslarning amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijasida affikslarni chuqur o‘rganish til egallash samaradorligini oshirishi haqida xulosa berilgan.

Kalit so‘zlar: affiks, prefiks, suffiks, so‘z yasalishi, lug‘at boyligi, til o‘rganish, grammatika, ingliz tili, qo‘shimcha, til ko‘nikmalari.

Abstract. This article highlights the importance of knowing affixes in the process of language learning. It discusses the types of affixes, their role in word formation, and their importance in expanding vocabulary. Furthermore, the article analyzes how learning affixes helps develop students’ grammar, writing, reading, and word comprehension skills. Examples from the English language are provided to demonstrate the practical significance of affixes. As a result of the research, it is concluded that a deep understanding of affixes increases the effectiveness of language acquisition.

Keywords: affix, prefix, suffix, word formation, vocabulary, language learning, grammar, English language, affixation, language skills

Аннотация.В данной статье рассматривается значение знания аффиксов в процессе изучения языка. Освещаются виды аффиксов, их роль и значение в словообразовании, а также их вклад в расширение словарного запаса. Кроме того, анализируется влияние изучения аффиксов на развитие у учащихся навыков грамматики, письма, чтения и понимания значения слов. В статье приводятся примеры из английского языка, раскрывающие практическую значимость аффиксов. По результатам исследования сделан вывод о том, что глубокое изучение аффиксов способствует повышению эффективности овладения языком.

Ключевые слова: аффикс, префикс, суффикс, словообразование, словарный запас, изучение языка, грамматика, английский язык, языковые навыки.

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonida xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Tilni samarali o‘rganishda lug‘at boyligi, grammatika, talaffuz va o‘qib tushunish juda katta ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda affikslarni bilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Affikslar so‘zning ma’nosini o‘zgartiradi, yangi so‘zlar yasaydi hamda grammatik shakllarni hosil qilishda xizmat qiladi. Shu sababli ham affikslarni o‘zlashtirish o‘quvchilarni lug’at boyligini kengaytirish, so‘zlarning ma’nosini tezroq anglab yetish va nutqni to‘g’ri shakllantira olishga yordam beradi. Ayniqsa, ingliz tilida prefix va suffikslarning keng qo‘llanilganligi uchun til o‘rganuvchilarga yangi so‘zlarni tushunish osonlashadi. Misol uchun, birgina affiks yordamida bir qancha yangi so‘zlarni hosil qila olish mumkin. Bu esa til egallash jarayonini yanada samarali qilib beradi. Bundan tashqari, affikslarni tushunish o‘quvchilarning o‘qish, yozish va tinglab tushunish ko‘nikmalari ni rivojlantirishga xizmat qiladi.Ushbu maqolada affikslarni o‘zlashtirishning ahamiyati, ularning turlari hamda so‘z yasashdagi ro‘li haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, affikslarni bilishning til ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi hissasi haqida fikr yuritiladi.

Affikslar tilshunoslikning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ular so‘zning ma’nosiga qo‘shimcha ma’no yuklash yoki yangi so‘z hosil qilish uchun xizmat qiladi. Tilshunoslikda affikslar asosan prefiks hamda suffikslarga bo‘linadi. Ingliz tilida prefiks va suffiks keng qo‘llanilsa, o‘zbek tilida suffikslar faol qo‘llaniladi. Ingliz tilida qo‘shimchalar 3 xil vazifani bajaradi. Birinchisi, so‘z ma’nosini o‘zgartirishga xizmat qiladi. Bunda so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida so‘zlarning ma’nolari inkor, qayta bajarish yoki kuchaytirish kabi jihatlarga o‘zgaradi, misol, write – rewrite, known – unknown, happy – unhappy. Ikkinchi turi esa yangi so‘z turini shakllantirish uchun ishlatiladi, masalan, teach – teacher, happy – happiness, use – useful kabilar. Uchinchisi, yangi so‘z hosil qilmasdan, mavjud bir so‘zning grammatik shaklini o‘zgartiradi. Ular zamon, son, kelishik kabi grammatik kategoriyalarni bildiradi. [1] Misol uchun, ed – o‘tgan zamonni, ing – esa davomli zamonni, to be fe’li – esa bog‘lamalarni, s – ko‘plikni, er, est – sifat darajalarini ifodalaydi.

O‘zbek tilida esa affikslar so‘z yasash yoki so‘zning sintaktik vazifasini bajarish uchun yo‘naltirilgan. Ya’ni o‘zbek tilida affikslar nafaqat yangi bir so‘z turini yasaydi, balki so‘zning grammatik vazifasini ham aniq belgilab beradi.

Til o‘rganuvchilar uchun affikslarni bilishning ahamiyati haqida gapiradigan bo‘lsak, bizning fikrimizga ko‘ra affikslarni bilish o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytirishga, yangi so‘zlarni ma’nolarini tezroq anglashga va grammatik ko‘nikmalarni faolroq rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, ingliz tilida prefiks va suffikslarni ko‘p qo‘llanilishi til o‘rganish jarayonini ancha rivojlantirishini unutmasligimiz lozim. F. Abrurahimovaning fikriga ko‘ra affiksatsiya ingliz morfologiyasining muhim asoslaridan biri hisoblanadi, shuningdek so‘z yasalishi, grammatik vazifa va til o‘zlashtirishda ulkan ta’sir ko‘rsatadi. So‘z yasovchi va shakl yasovchi affikslar yordamida ingliz tilida so‘zlashuvchilar lug‘at boyligini samarali ravishda kengaytirishlari, o‘zgarib borayotgan kommunikativ ehtiyojlarga moslashishlari va til ifoda imkoniyatlarini boyitishlari mumkin.

Darhaqiqat, til o‘rganuvchilar uchun qo‘shimchalarni tushunish, ularni kerakli joyda qo‘llay bilish tilni o‘rganish jarayonida muhim omil hisoblanadi. Quyida chet tilini o‘rganuvchilarga affikslarni tushunishning foydalari haqida gapirib o‘tamiz. Birinchidan, lug‘atlarni samarali yod olishga ko‘maklashadi. Ya’ni o‘rganuvchi har bir so‘zni alohida yod olmasdan so‘zning asos qismini yod oladi va qo‘shimchalarni qo‘shish orqali turli turkum va ma’nodagi so‘zlarni qo‘llay oladi. Misol qilib, o‘quvchi happy so‘zini baxtli, hursand deb yod olgan bo‘lgan bo‘lsa, unga -un, - ness, -ly, -ier, -est kabi qo‘shimchalarni qo‘shib baxtsiz, baxt, baxtli ravishda, baxtliroq, eng baxtli kabi so‘zlarni bilishi mumkin. Bu orqali o‘quvchi bir so‘zni yodlash evaziga 10 tagacha yangi so‘zlarga ega bo‘ladi. Bu esa o‘quvchini vaqtdan yutishiga imkoniyat yaratib beradi.

Ikkinchidan, grammatikani yaxshi tushuna olish va erkin so‘zlashishga keng yo‘l ochiladi. O‘quvchi grammatikani yaxshi tushunsa, tilni yaxshi o‘rgana oladi, moslasha oladi, o‘z tiliga taqqoslagan holatda o‘rgana oladi. Shuningdek nutqida faqatgina bir turkum doirasidagi so‘zni qo‘llamasdan turli xildagi so‘z turkumidagi so‘zlardan foydalana oladi.

Uchinchidan, qo‘shimchalarni yaxshi farqlay olgan, uni qo‘llay oladigan o‘quvchilarda nafaqat gapirish, balki o‘qish, yozish ko‘nikmalari ham juda tez rivojlanadi. Ya’ni o‘quvchi matnni tez tushuna oladi, farqlab uni tarjima qila oladi. Xususan, F. Abdurahimovaning ta’kidlashicha ham affiksatsiya o‘qish va yozish kabi savodxonlik ko‘nikmalari uchun muhim bo‘lgan morfologik xabardorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, morfologik xabardorligi kuchli bo‘lgan o‘quvchilar matnni yaxshiroq tushunadilar, chunki ular murakkab so‘z shakllarini aniqlash va tushunishga ko‘proq qodir bo‘ladilar.

Affiksatsiya nafaqat so‘z yasashning morfologik mexanizmi, balki til tizimini chuqurroq tushunishga yordam beradigan muhim kognitiv-didaktik vosita sifatida ham qaraladi. Ta’kidlanishicha, affikslarni bilish talabalarga yangi so‘zlarning ma’nosini mustaqil aniqlash, ularning grammatik mansubligini anglash, leksemalarni o‘zaro mantiqiy bog‘lash hamda tarjimaga doimiy murojaat

[1] F.Abdurahimova, N.Alijonova “The role of affixation in English language”

qilmasdan lug‘at boyligini kengaytirish imkonini beradi.[2] Affikslarni bilish ingliz tilini o‘rganish jarayonini sezilarli tarzda yengillashtiradi. Nation tadqiqotlari isbotlaganidek, so‘z yasashning asosiy modellarini o‘zlashtirish talabalarning yangi lug‘at birliklarini osonroq o‘rganishiga ko‘maklashadi. Misol uchun: re-prefiksining (“qayta”, “yana”) yoki -less suffiksining (“-siz”, “yoq”) ma’nosini bilishgan holda o‘quvchilar lug‘atsiz ham so‘z ma’nosini taxmin qilish mumkin. Empiririk tahlillarga ko‘ra yangi so‘zlarni o‘rganishda morfemik tahlil usulidan faol foydalangan talabalar faol lug‘at boyligini o‘rtacha 25-30% ga oshirganlar. Bu esa affikslar bilan ishlash leksik kompetensiyasini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, affikslarni o‘rganish ingliz tilini o‘rganuvchi talabalar uchun juda samarali vosita hisoblanadi. Bu orqali o‘quvchilarning yozma, og‘zaki savodxonligi oshadi, matnlarni erkin tarzda tarjima qila oladi, bir xil so‘zlarni amalda qo‘llashdan chekinadi. O‘quvchi bir lug‘atni yodlash evaziga qo‘shimcha 10 tagacha yangi so‘zlarni o‘zlashtira oladi, bu esa uning til o‘rganayotgan vaqtini tejaydi, ta’lim olish darajasini qo‘llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulazizov A. Ingliz tili leksikologiyasi va so‘z yasalish masalalari. – Toshkent, 2008
2. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007.
3. Adams, V. (2021). English Word-Formation. Cambridge University Press. 118 p
4. Bauer, L. (2021). An Introduction to English Morphology. Oxford University Press. 514-547 pp
5. Crystal, D. (2019). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press. 181-183 pp
6. Menlikova T.V “ The significance of understanding affixes in the process of learning English: theoretical and practical aspects”, // Науковий вісник Міжнародного гуманітарного університету. Сер.: Філологія, 2025, №75, pp. 79–83
7. “Affiks” // O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. URL: Qomus.info (murojaat qilingan sana: 25.05.2026).
8. So‘z yasalishi va affikslar” // Ziyonet ta’lim portali (murojaat qilingan sana: 25.05.2026).

[2] Menlikova T.V “ The significance of understanding affixes in the process of learning English: theoretical and practical aspects”, // Науковий вісник Міжнародного гуманітарного університету. Сер.: Філологія, 2025, №75, pp. 79–83.